ACHILLEA FILIPENDULINA LAM. O‘SIMLIGINING XALQ TABOBATIDA QO‘LLANILISHI

[a]Mamatqulova Surayyoxon Abdusamatovna
[a]Farg‘ona davlat universiteti, Kimyo kafedrasi mudiri. Kimyo fanlari doktori,professor (DSc)

[b]Xojiyeva Komila Ravshanovna
[b]Farg‘ona davlat universiteti, tayanch doktaranti.

Anotatsiya: *Maqolada O‘zbekistonda o‘suvchi tubulg‘ibargli boyimadaron(Achillea filipendulina) o‘simligining morfologiyasi,kimyoviy tarkibi,tibbiyot va xalq tabobatida qo‘llanilishi ko‘rib chiqilgan. Achillea filipendulina o‘simligining xalq tabobatidagi o‘rni, shifobaxsh xususiyatlari hamda undan an'anaviy davolash amaliyotida foydalanish yo‘llari tahlil qilingan. O‘simlik tarkibidagi biologik faol moddalar ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, o‘simlikning yallig‘lanishga qarshi, antiseptik, qon to‘xtatuvchi, spazmolitik hamda antioksidant xususiyatlari haqida xalq tabobati va ilmiy adabiyotlar asosida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Achillea filipendulina, xalq tabobati, dorivor o‘simlik, biologik faol moddalar, flavonoidlar, efir moyi, fitoterapiya, antioksidant, yallig‘lanishga qarshi ta'sir.*

Turli geografik va iqlim sharoitlari tufayli O‘zbekiston dorivor o‘simliklar to‘plangan eng boy hudud hisoblanadi. Tadqiqotchilarning yakdil fikriga ko‘ra, ular orasida ilmiy tibbiyot uchun qiziqish uyg‘otadigan qimmatli biologik faol moddalarning potensial manbalari kam emas. Tadqiqotimiz obyekti - tubulg‘abarg bo‘yimodaron (AchilleafilipendulinaLam) shular jumlasidandir. Achillea filipendulina Lam. - tubulg‘ibargli bo‘ymodaron (o‘zbekcha -tubulg‘ibargli bo‘ymodaron) o‘q ildizpoyali ko‘p yillik o‘t o‘simlik. Poyalari ko‘p sonli, yo‘g‘on, egatli-qirrali, yarim yotiq uzun tuklar bilan qalin qoplangan, bezli, keyinroq yalang‘ochlanadigan, qalin bargli, bo‘yi 60-75 sm. Barglari yarim yotiq uzun yoki kalta tukli, nuqtasimon bezchali, shakli keng cho‘ziq-nashtarsimon, oddiy patsimon qirqilgan, yirik cho‘ziq-nashtarsimon kesik tishli bo‘lakli, pastki qismi bandli, yuqori qismi bandsiz, yuqoriga qarab asta-sekin kichrayib boradi. Savatchalari teskari konussimon, kam yoki ko‘p rangli, uzunligi 4-10 mm, poya uchlarida qalin murakkab qalqonchaga yig‘ilgan. O‘rama bargchalari cho‘ziq-nashtarsimon, uchli, orqa tomoni bo‘rtib chiqqan qirrali, uzun tuklar bilan zich qoplangan.[1**]** Achillea filipendulina Lam. — ldizpoyasi yog‘ochlashgan. Poyalari kam sonli, ba’zan esa yakka holda bo‘lib, balandligi (25) 40–70 (120) sm ga yetadi, tik o‘sadi. Gullari savatcha (to‘pgul) holida bo‘lib, kam gulli yoki ko‘p gulli, zich va yirik to‘pgullarni hosil qiladi (diametri 10 sm gacha**).**Iyun–avgust oylarida gullaydi.Daryo vodiylaridagi shag‘alli yerlarda, toshloq, gil va qumloq-gil tuproqlarda, ariqlar, buloqlar va soylar bo‘ylarida, shuningdek, tashlandiq yerlarda, tog‘larning ochiq va quruq yonbag‘irlarida, tog‘ o‘rmonlari hamda butazorlarning ochiq maydonlari va chekkalarida uchraydi.[2]Iyun-sentyabr boshlarida gullaydi, avgust oxiri-sentyabrda meva beradi[3].Ushbu o‘simlikning biz tomonimizdan ilgari o‘tkazilgan kompleks farmakognostik va farmakologik tadqiqotlari uni yaralarga qarshi, diuretik va qon

to‘xtatuvchi ta’sirga ega bo‘lgan yangi dori vositasi sifatida tavsiya etish imkonini berdi. Hozirgi kunga kelib, tubulg‘ibargli bo‘ymodaron gullarining o‘t haydash xususiyati ham aniqlangan.[4]. Kimyoviy tarkibi: O‘simlik gullash davrida barglari tarkibida 0,24 foiz, yer ustki qismida 0,19 foiz, to‘pgullarida 0,32, urug‘lash paytida esa to‘pgullarida 0,38 foiz efir moyi saqlaydi. Bu moy och sariq rangli, yoqimsiz, o‘tkir hidlidir. Efir moyi tarkibini oktilen, pinen, borneol, kamfor, kamfen, murakkab efirli spirtlar tashkil etadi. Efir moyi, borneol va kamforalarni olish manbai hisoblanadi. U dorivor hamda efir moyli osimliklardan bo‘lib, uning qiyom yoki sharbatidan oshqozon og‘riqlarini hamda bavosilni davolashda foydalanish mumkin [5].Achillea filipendulina o‘simligining kimyoviy tarkibida efir moyi, triterpenoidlar, kumarinlar, seskviterpenoidlar, flavonoidlar va karotinoidlar aniqlangan. Efir moyining asosiy komponentlari linalool (17,3%), 1,8-sineol (14,6%) va p-tsimoldir (9,4%).[**7]** Fitokimyoviy tarkibi: A. filipendulina efir moyining tarkibidagi komponentlarning taxminan 79% gaz xromatografiyasi mass-spektrometriya (GC-MS) yordamida aniqlangan, o‘simlik tarkibining 63.2% monoterpenlardan iborat. Terpenlardan tashqari, boshqa birikmalar, masalan, yog‘ kislotalari, fenollar, aromatik birikmalar, vitaminlar, kamfora va ketonlar aniqlangan Tibbiyotda qo‘llanilishi: O‘simlik yallig‘lanishga qarshi, spazmolitik, yaralarni bitiruvchi va antiseptik ta’sirga ega bo‘lib, asosan jarohatlarni davolashda ishlatiladi. Choy va damlama sifatida ovqat hazm qilish buzilishlari, hayz og‘riqlari va ginekologik holatlarda qo‘llaniladi. Bundan tashqari, teri yallig‘lanishi, ekzema va varikoz tomirlarini davolashda ishlatiladi [6]. Xalq tabobatida yurak, oshqozon, xolesistit, xolangit kasalliklarida, o‘t yo‘llari diskineziyasida, bezgak, uyqusizlik, siydik-tosh kasalligida, jigar xastaliklarining ayrim turlarida, siydik tutolmaslikda, jarohatni bitiruvchi hamda ko‘p qon ketish bilan kechadigan hayz ko‘rishda qon to‘xtatuvchi vosita sifatida ishlatiladi.

Efir moyi va seskviterpenoidlar majmuasi antibakterial, zamburug‘larga qarshi, qon to‘xtatuvchi ta’sir ko‘rsatadi, shuningdek, xushbo‘ylashtiruvchi vosita sifatida ham qo‘llaniladi. O‘simlik turli mamlakatlar tibbiyotida qon to‘xtatuvchi vosita sifatida (burun, bachadon, o‘pka, gemorroy va boshqa qon ketishlarda), kolitda, me’da-ichak traktining turli kasalliklarida, oshqozon va o‘nikki barmoqli ichak yara kasalligida, siydik yo‘llarining yallig‘lanish kasalliklarida hamda me’da-ichak buzilishlarida burishtiruvchi vosita sifatida keng qo‘llaniladi. Chak spazmlari yoki stenokardiyada — nastoyka: 2 osh qoshiq quritilgan gullar va barglarni olib, 200 ml 40%li aroq bilan quyib, 7 kun damlash kerak; damlamani quyosh nurlaridan yiroq iliq joyda saqlang. Dori vositasini ovqatdan oldin kuniga uch marta 20 tomchidan ichiladi [7].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Pulatova, A. Nigmatullayev, F. Urmanova.”ON THE ISSUE OF ECOLOGICAL AND COENOTIC HABITAT CONDITIONS AND RESOURCES OF THE ACHILLEA FILIPENDULINA” https://in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/10894

2. Истамкулова Международный научный журнал «ВЕСТНИК НАУКИ» № 10 (43) Т.5. ОКТЯБРЬ 2021 г. УДК 581.633. М.МРОД ТЫСЯЧЕЛИСТНИК (ACHILLEA) ВО ФЛОРЕ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

3. Флора Узбекистана. -Ташкент:УзАН, 1962. -Т.6. -С. 254-255.

4. М.Х.Турсунова, Д.К.Пулатова, Ф.Ф.Урманова. Желчегонное действие настоя из цветков Achillea filipendulina Lam. в эксперименте //Фармацевтический журнал. –Ташкент. -2024. -No 4. –С. 92-95

5. Jalilova Go‘zal Qahramon qizi, Ochilova Nurbibi Raximovna” Efir Moyli O’simliklar Biologiyasi Va Ularning Ahamiyati Haqida Ma’lumotlar” AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI. Jild: 02 Nashr:05 2023 yil

6. Majidi A.H., Arifi A., Qasimi A.B. 2024. Traditional use of medicinal plant diversity in the Yawan district of Badakhshan, Afghanistan. Vegetos, 1-9

7.https://ethnobotany.uz/ru/plant/achillea-filipendulina-lam